

**BUXORO ADABIY MUHITIDA TA’LIM VA TARBIYANING TARIXIY TAHLILI
VA ZAMONAVIY TA’LIMDAGI AHAMIYATI**

Ro‘ziyeva Mohichehra Yoqubovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixalogiya kafedra mudirasi, f.f.f.d (PhD)

Boltayeva Sharofat Abdilloyevna

Osiyo xalqaro universiteti

pedagogika magistratura mutaxassisligi bo‘yicha I-bosqich magistri

Annotatsiya: *Buxoro adabiy muhitida ta’lim va tarbiyaning tarixiy tahlili va zamonaviy talimdagi ahamiyati ilmiy va amaliy jihatdan yoritilgan.*

Аннотация: *В научном и практическом плане освещен исторический анализ образования и воспитания в литературной среде Бухары и его значение в современном образовании.*

Annotation: *A historical analysis of education and upbringing in the literary environment of Bukhara and its significance in modern education are scientifically and practically covered.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, adabiy muhit, tarixiy tahlil, zamonaviy ta’lim, amaliy ahamiyat.*

Buxoro asrlar davomida Markaziy Osiyoning ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham bu yurtida ko‘plab olimlar, mutafakkirlar, allomalar yetishib chiqqan. Biz o‘rta asrlardagi Buxoro ta’lim tizimiga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak, Buxoro – ilm maskani sanaladi. Buxoroning ta’lim tizimi, madrasalar tarixi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilib, shahar madrasalarining 1200-yillik o‘tmishini, ulardagi ta’lim jarayonini ko‘rishimiz mumkin. Biz Buxoroning adabiy muhitini undagi ta’lim tizimini o‘rganar, tahlil qilar ekanmiz, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosdan g‘ururlanamiz. Bugungi zamonaviy ta’lim tizimi ham hattoki, bizning ajdodlarimiz qoldirgan kitoblarga hali-haligacha ehtiyoj sezishadi. Tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan buyuk allomalarimizdan Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abu Bakr Narshaxiy, Abu Mansur Moturidiy Bahouddin Naqshbandiy kabi ulug‘ siymolarimiz ta’lim va tarbiya borasida biz uchun bir umrga tatigulik asarlar qoldirishgan. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobi g‘arbda ham mashhur bo‘lib, undan bugungi kunda ham foydalanishadi. Imom al-Buxoriyning “Aj-Jome as-Sahih” asari juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, biz bu kitobdan manaviy ozuqa olamiz. Zamonaviy ta’lim tizimi ham, tarixiy ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq. Bugungi kundagi ta’lim bir qancha islohotlarga ehtiyoj sezadi. Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ta’lim tizimidagi innovatsion indeksning ortishi hamda yoshlarning sifatli ta’lim olishi, o‘z potensialini erkin nomoyon qilishlari, mamlakatimiz rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyevning rahbarligida O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha bir qancha qarorlar qabul qilindi. Bu qarorlar o‘z ichiga ta’lim sifatini oshirish, kadrlarning malakasini yangilash, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, shuningdek, iqtisodiyotni zamonaviy texnologiyalar va bilimlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishni, ularning bilim va malakalarini xalqaro standartlarga moslashtirishni nazarda tutadi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan o‘qituvchilarni malaka oshirish va ularni yangi pedagogik texnikalar bilan tanishtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungu kunning dolzarb masalasi bo‘lgan ta’lim va tarbiya fidokor, izlanuvchan, tashabbuskor, xalqchil pedagoglarimiz bilan bog‘liq bo‘lib qolaveradi. Demak ustozlarni e’zozlash, ularga imkoniyatlar eshigini ochish kelajak avlodni bizdanda ko‘ra bilimli va baxtli qiladi. Shunday ekan, yurt uchun, kelajak uchun yonib yashaylik hamda ajdodlarimizga munosib farzand bo‘laylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO‘LAJAK OLIY MA‘LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO‘NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O ‘SMIRLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
7. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O ‘SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO ‘LISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
8. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.